



№ 04/1-5533

2025 - yil 15-noyabr

Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi Musurmankulova Madina Nosirovnaning "Bino-inshoot va qurilish atamalarining rus, o'zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy tadqiqoti" mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalari va xulosalaridan davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi loyihalarni bajarishda foydalanilganligi to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

Musurmankulova Madina Nosirovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan "Bino-inshoot va qurilish atamalarining rus, o'zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy tadqiqoti" mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalari va materiallaridan davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. Jumladan, tadqiqotdagi:

Har uchala tildagi bino-inshoot va qurilish atamalari tizimida kontekstual va lisoniy faoliyatning verballashuvi natijasida yuzaga kelgan semantik munosabatlar qurilish materiallari, ish asboblari, qurilish uskunalari, qurilayotgan obyektlar va binolarning tarkibiy qismlari kabi asosiy kategoriyalar negizida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalarga oid ilmiy maqolalaridan foydalanilgan.

Bino-inshoot va qurilish atamalarining tarkibiy tuzilishi ingliz tilida asosan analitik qurilish ustuvor bo'lsa, rus tilida prefiksial va suffiksial modifikatsiyalarning yuqori faolligi kuzatilib, atamalar ko'p hollarda polimorfik birliklar shaklida ifodalanadi, o'zbek tilida esa so'z yasovchi suffikslar samaradorligiga oid ilmiy xulosa va natijalarda tadqiqot ilmiy manba sifatida xizmat qilgan.

Ushbu ma'lumotnoma Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashga taqdim etish uchun berildi.

Tadqiqotchi mazkur loyihada bevosita ishtirok etmagan.

Asos: loyiha rahbari ma'lumotnomasi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti OO'MTVning 16.07.2021-yil 311-sonli buyrug'iga muvofiq tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Rektor



Sh.Sirojiddinov